

OLIV TA'LIM MUASSASALARI IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARI UCHUN RUS TILIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TAVSIYA VA TEXNOLOGIYALARI

Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillar instituti tayanch doktoranti
e-mail: Nuraliyevamaftuna4440@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18933055>

Annotatsiya. Maqola iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda globallashuv va ta'lim tizimlarining transformatsiyasi sharoitida rus tilidagi professional kompetensiyani shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Unda rus tillarni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuvning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston ta'lim tizimining Bolonya jarayoniga integratsiyalashuvi sharoitida talabalarning ta'limiy va professional mobilligini kengaytirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy kompetensiyaviy o'qitish modelida fanlararo kommunikatsiya bilan birga kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilib, til tayyorgarligining zamonaviy professional chaqiriqlar – xalqaro karyera, xalqaro tajriba almashinuv va professional integratsiya – nuqtayi nazaridan ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada talabalarda kognitiv mustaqillik va professional kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini uqtiriladi; bu esa talabalarning globallashgan dunyoda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi hamda samarali karyerasi uchun poydevor hisoblanadi.

Kalit so'zlar: rus tilidagi professional kompetensiya, fanlararo kommunikatsiya, iqtisodiy ta'lim.

Аннотация. Статья посвящена вопросам формирования профессиональной компетенции на русском языке у студентов экономического направления в условиях глобализации и трансформации образовательных систем. Рассматриваются основные аспекты компетентностного подхода к обучению русскому языку. Анализируются возможности расширения образовательной и профессиональной мобильности студентов в условиях интеграции системы образования Узбекистана в Болонский процесс. В статье особое внимание уделяется проблемам формирования профессиональных навыков и междисциплинарной коммуникации в рамках современной компетентностной модели обучения, а также подчеркивается значение языковой подготовки с точки зрения современных профессиональных вызовов – международной карьеры, международного обмена опытом и профессиональной интеграции. Подчеркивается необходимость развития когнитивной самостоятельности и профессиональных компетенций у студентов, что является важной основой для их успешной социализации и эффективной карьеры в условиях глобализирующегося мира.

Ключевые слова: профессиональная компетенция на русском языке, междисциплинарная коммуникация, экономическое образование.

Abstract. The article is devoted to the issues of developing professional competence in the Russian language among students of economic specialties in the context of globalization and the transformation of educational systems. The main aspects of the competence-based approach to teaching the Russian language are considered. The opportunities for expanding students' educational and professional mobility in the context of the integration of Uzbekistan's education system into the Bologna Process are analyzed. Special attention is paid to the problems of developing professional skills and interdisciplinary communication within the framework of the modern competence-based model of education, as well as to the importance of language training in relation to modern professional challenges such as international careers, international exchange of experience, and professional integration. The article emphasizes the necessity of developing students' cognitive independence and professional competencies, which serve as the foundation for their successful socialization and effective career development in a globalized world.

Keywords: professional competence in Russian, interdisciplinary communication, economic education.

Kirish. Zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimida yuz berayotgan global o'zgarishlar ta'limning ochiqligi va moslashuvchanligini ta'minlashni, shuningdek xalqaro hamkorlikni kengaytirishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning ta'limiy va professional mobilligini oshiradi, ularni xalqaro akademik va mehnat bozorlariga integratsiyalashuviga yordam beradi. Natijada, mutaxassislarning karera trayektoriyalarini kengaytiradi va inson kapitalining global mobilligini oshirishga turtki beradi [1.9].

Iqtisodiy yo'nalishlar talabalarida rus tilidagi professional kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan multidisiplinar metodologik strategiyalar majmuasi sintez qilinishi tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Bu strategiyalar makrogloballashuv va ta'lim transformatsiyalari prizmasi orqali talqin qilinadi.

Iqtisodiy yo'nalishlar talabalarini uchun rus tilidagi professional kompetensiyani shakllantirishning sotsiologik determinantlarini, shuningdek xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi hamda birja va moliyaviy bozor sharoitida ishlash ko'nikmasini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish tadqiqotning nazariy jihatidir.

Rus tilida muloqot qilish ko'nikmalarini iqtisodchi talabalarda shakllantirishga qaratilgan o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha o'quv qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar va darsliklarni ishlab chiqishda tadqiqotning amaliy ahamiyati namoyon bo'ladi. Bu esa talabalarning xalqaro professional hamjamiyatga integratsiyalashuvi va kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni egallashiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy professional ta'limning zamonaviy muammolarini yorituvchi nazariy paradigmalarda O'zbekistonda rus tilini kasbiy-kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishga doir muayyan tadqiqotlar alohida o'rin tutadi.

Misol sifatida ko'rib o'tadigan bo'lsak, Kamalova Dilafruz: "Rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishning uslubiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish", R.Y.Kahramanova: "Using Professionally-Directed Texts in Russian... in non-linguistic HEIs of Uzbekistan", O.Irgashev: "Developing Professionally Oriented Communicative Competence in Future Economists", Z.S.Xudoynazarova: "Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar" kabi bir qancha tadqiqotlar O'zbekistonda rus tilini kompetensiyaviy o'qitishning metodik tajribasi va kasbiy yo'nalish muvaffaqiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, sohadagi yondashuvlar xilma-xilligini namoyon etadi. Mening tadqiqot ishimi esa, aynan O'zbekistonning Bolonya jarayoni talablari bilan uyg'un holda, iqtisod yo'nalish talabalarini uchun rus tilini o'qitishda yangi metodik texnologiyalarni taklif etishga qaratilib, mazkur manbalarda boshlangan fanlar integratsiyasi, yo'nalishga asoslangan o'qitish va baholash me'zonlarini kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga asoslangan topshiriqlar, glossary, xalqaro tajribalardan xabardor bo'lish va xalqarohamkorlikni rivojlantirish, kasbiy mobillikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar, mavzu va topshiriqlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompetensiyaviy, kommunikativ-kognitiv va fanlararo yondashuvlarga asoslangan ilmiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, pedagogik kuzatuv hamda ta'lim jarayonidagi amaliy tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun rus tilini o'qitish samaradorligini aniqlash maqsadida o'quv jarayonidagi natijalar tahlili va metodik tajriba elementlari qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Samarali professional rejalashtirish, global standartlarga muvofiqlik va raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlash zarurati zamonaviy sotsiomadaniy dinamika sharoitida chet tillarni o'qitishda innovatsion pedagogik amaliyotlarni joriy etishni talab qiladi. Globallashuv va tezlashayotgan texnologik transformatsiyalar sharoitida chet tillarini (jumladan rus tilini) o'qitishda yangi professional chaqiriqlar yuzaga kelmoqda. Bu kontekstda kompetensiyalarning yangi tarkibi ajratib ko'rsatilishi zarur; aynan shu kompetensiyalar kelajak mutaxassisining kasbiy modelining asosini tashkil qiladi. Bu aniqliklar faqat terminologik ta'riflar bilan chegaralanmaydi, balki transformatsion ssenariylar va texnologik yechimlarga bog'liq holda real o'quv jarayonida ham o'z ifodasini topishi lozim; natijada yangi ijtimoiy o'zlikni anglash va professional subyektivlik shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan, nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy yo'nalishda ham, chet tilini, xususan rus tilini kasbiy yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Bu yondashuv kompetensiyaviy o'qitish modelining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, xalqaro kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning ko'p madaniyatli va ko'p tilli professional muhitda o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirishga urg'u berilmoqda; bunda rus tili nafaqat xizmat ko'rsatuvchi vosita, balki muloqotning ma'nosini belgilovchi muhit sifatida ham ko'riladi. Muhim jihatlardan yana biri – rus tilida kasbiy muloqot ko'nikmalarini integratsiyalash, xorijiy tajriba va ilmiy ma'lumotlardan foydalanish bo'lib, bu sohadagi qilish lozim bo'lgan tadqiqotlar uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy tahlilning integrativ vektori doirasida kompetensiyalar ijtimoiy shartlangan konstruksiyalar sifatida ko'riladi; ular o'quv rejalari va standartlarida mustahkamlanib, "Rus tili grammatikasi va adabiyoti", "Kasbiy sohada rus tili" kabi ta'lim yo'nalishlaridagi didaktik amaliyotlar bilan bevosita bog'lanadi. Ularning maqsadi – maxsus bilimlar tizimini egallash, professional va iqtisodiy muloqotda zarur bo'ladigan kommunikativ malaka hamda ko'nikmalarni puxta o'zlashtirish. O'quv jarayonida talaba rus tili grammatikasi, til me'yorlari, rus adabiyotining yorqin na'munalari bilan bir qatorda iqtisodiy matnni tushunish va tahlil qilish, shuningdek iqtisodiy faoliyatdagi kasbiy muloqotning asosiy jihatlari va ko'nikmalarini ham o'zlashtiradi.

Tadqiqotning asosiy masalasi sifatida:

1. Kommunikatsion-kognitiv yondashuvning printsiplial ustuvorligi qo‘yiladi; unda kommunikativ kompetensiya tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda dinamik harakatdagi ijtimoiy va til hodisalari kontekstida kommunikatsiyaning jarayon sifatida ko‘rilishi ta’kidlanadi.

2. Kasbiy standartlarga tayanuvchi amaliy tayyorgarlik murakkab kompetensiyalar tizimini o‘z ichiga oladi; bunda tilning ijtimoiy-kommunikativ amaliyoti bilan bog‘liq barcha jihatlar muhim sanaladi. Yondashuvning maqsadi – mehnat bozori talablariga mos keladigan, turli ijtimoiy-til muhitlarida samarali harakat qila oladigan maqsadli kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir.

3. Fanlararo integratsiyaning didaktik mexanizmini saqlab qolish zarur; bu o‘quv maqsadlarining yuqori darajasiga erishish, o‘quv materialini mazmunan integratsiyalash, pedagogik faoliyatni strukturaviy tarzda tashkil qilish imkonini beradi [3, c.40].

4. Talabalarning motivatsion qabul qilish jarayonini faollashtirishga alohida e’tibor qaratiladi; bu rus tilini o‘rganishga barqaror motivatsiyani, ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan.


5. O‘quv faoliyati subyektlarining (talabalarining) kommunikativ mustaqilligi va tashabbuskorligini shakllantirish ko‘zda tutiladi; bunda auditoriya ichida ham, tashqarisida ham o‘quv vazifalarini mustaqil hal qilish, hamkorlikda ishlash, o‘zini o‘zi tartibga solish va intizomli harakatlar rivojlantiriladi.

Kommunikativ-kognitiv yondashuv zamonaviy metodologik paradigma doirasida nazariy asoslanadi. Paradigma ta’lim jarayonida “inson-inson” o‘zaro ta’siri hukmron bo‘lgan, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli o‘quv vaziyatlarining ko‘pmadaniyatli mazmunida bilim subyektining faol ishtirokini taqozo etadi. Bunday vaziyatlarda shaxsiy kognitiv resurslar ishga solinadi, ular muayyan kommunikativ vazifalarni bajarishga qaratiladi; natijada talaba rus tilida og‘zaki va yozma muloqot qilishi uchun zarur bo‘lgan fanlararo kompetensiyani egallaydi.


Zamonaviy sotsiologik paradigmda ta’limiy diskursning integratsion vektori metodologik strategiyalar sintezi sifatida ko‘riladi. Bu vektor didaktik amaliyot bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, kasbiy tayyorgarlikda tadqiqot komponentining o‘rnini oshiradi, talabalarni ijtimoiy va kasbiy mobillikka yo‘naltiradi, sotsiologik va fanlararo determinantlar murakkab tahlilini, shuningdek kommunikativ holatlarning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda “murakkab kompetensiyalar”ni shakllantirishni nazarda tutadi.

Tilshunoslik diskursi kontekstida rus tilida o‘qitish bo‘yicha bilimlar mazmuni chuqur ixtisoslashgan: terminologiya, kognitiv-pragmatik modellash, iqtisodiy matnlar janr-stil xususiyatlari kabi tarkibga ega. Bu bilimlar iqtisodiy matnni tahlil qilish, xorijiy manbalardan foydalanish, xalqaro iqtisodiy faoliyatda muloqot qilish, shuningdek kelajakdagi kasbiy faoliyatda pragmatik yo‘naltirilgan nutqiy xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini shakllantiradi [4.52].

O‘quv mashg‘ulotlari davomida “Rus tili” fani bo‘yicha amaliy ishlar axborot-tahliliy faoliyatning turli ko‘nikmalarini kengaytiradi: og‘zaki monologik va dialogik nutq, yozma ishlar, referat va annotatsiyalar tayyorlash, iqtisodiy axborot bilan ishlashning tayanch ko‘nikmalari va h.k. Bunda ham nazariy bilimlar, ham kommunikativ, pragmatik malakalar bilan bog‘langan faol o‘quv pozitsiyasi shakllanadi.



1-
diagramma



2-diagramma

Yuqoridagi diagrammalarda rus tilini va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari tahlili ko‘rsatilgan.

Tadqiqot davomida talabalar fiziologik, ijtimoiy-madaniy, kasbiy-shaxsiy tayyorgarlikning uyg‘un rivoji asosida yangi bilimlarni mustaqil izlash, ularni

tizimlashtirish va reflektiv baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Jarayon o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orqali kechadi: bilimlar va ko'nikmalar tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi, natijada fanlararo kontekstda til va kasb uzviy bog'lanadi. Bu esa til tizimi va kommunikativ ehtiyojlar birligida professional mazmunni chuqurroq tushunishga, shaxsiy o'qish trayektoriyasini konstruksiyalashga turtki beradi. Ta'limiy natija sifatida mustaqil ijodiy faoliyat (prezentatsiyalar, posterlar, miniloyiha va minitadqiqotlar) paydo bo'ladi; ular bilimni nafaqat o'zlashtirish, balki amaliy qo'llash va o'zgartirishga ham xizmat qiladi. Boshqa o'quv faoliyatlari qatorida referat tipidagi matnlarni tayyorlash (referat, ma'ruza, insho, intervyu va boshqalar), tezislar yozish, sharh-taqdimotlar tuzish ham bor. Taqdimot fazasining shakllanishi analitik-interpretativ ko'nikmalar, shuningdek ilmiy-filosofik rekonstruksiya ehtiyojini yuzaga keltiradi; bu esa kompetensiyaviy yondashuvni qo'llab-quvvatlab, ta'lim mazmunining gnoseologik (bilish nazariyasiga oid) poydevorini mustahkamlaydi. Kompleks metodologik yondashuv barqaror kognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, yakuniy natijalarni mustaqil taqdim etish imkonini yaratadi va o'quv axborot-ta'lim muhitida subyektning o'zini o'zi namoyon qilishiga yordam beradi. Bu yondashuv didaktik konstruksiyada ko'lamli sifat o'zgarishlarini, o'quv jarayoniga eksperimental komponentni kiritishni, o'qitishning lingvomadaniy bazasini boyitishni talab qiladi [5.19].

"Iqtisodiyot" yo'nalishidagi talabalar uchun "Rus tili (kasbiy yo'nalish)" fanidan o'quv dasturi ishlab chiqildi; u fanlararo kommunikatsiya malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kursning maqsadi – talabalarning kasbiy faoliyatidagi kommunikativ kompetensiyani globallashuv sharoitida shakllantirishdir. Dastur 7 ta modulgacha bo'lib, har birida iqtisodiyot va kasbiy til muloqotining muhim jihatlari yoritiladi. O'quv vaziyatlari O'zbekiston iqtisodiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyati, biznes-muhit, korxonalar faoliyati, marketing strategiyalari, kommunikatsiyalar, moliya tizimi, bank amaliyoti, fond bozori, Jahon Iqtisodiyotining institutsional tuzilishi, mehnat bozori, huquq tizimi, biznes yozishmalarini qamrab oladi. Mavzular til va kasbning globallashuvchi iqtisodiy fazodagi o'zaro ta'sirini chuqur idrok etishga ko'maklashadi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim paradigmasi rus tilini kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylantiradi; u yangi kompetensiyalar majmuini ishlab chiqishni talab etadi. Ular professional "portret"ning aniq belgilangan konturini shakllantiradi, kelajak kasbiy faoliyatning kompetensiyaviy modelini aniqlaydi. Muhimi, iqtisodiy ta'limda rus tilini o'qitish mazmuni real kasbiy voqelikni chuqurroq tushunishga yo'naltirilgan bo'lishi, madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni kuchaytirishi va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob berishi zarur.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, tavsiya etilgan yondashuv rus tilini o'qitish metodikasini kelgusida yanada takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi; u o'quv kurslarini qayta loyihalash, kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, baholash vositalarini yangilash va talabalarning ta'limiy-kasbiy mobilligini oshirishga

qaratilgan amaliy usullarni joriy etishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv o'qitish natijalarini barqarorlashtiradi va talabalarning xalqaro mehnat bozorida muvaffaqiyatli karera qurishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании: методологические основы и практика реализации. – Москва: Институт образования человека, 2013. – 312 с.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевые основы компетентностного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 40 с.
3. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. – Москва: Высшая школа, 2012. – 240 с.

